

AQLIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNDA TESTLARDAN FOYDALANISH

Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2-bosqich magistranti

qodirovam1973@gmail.com

Annotasiya: Maqolada aql-zakovat muammosi, qobiliyat va iqtidor, uni rivojlantirish, qobiliyatni rivojlantirishda ta'lim muassasalarining o'rni, intellect va uni o'rganish masalalari, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar berilgan. Shu bilan birga aqliy qobiliyatni rivojlantirishda testlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: aql-zakovat, qobiliyat, iqtidor, ta'lim muassasalari, faoliyat, iste'dod, fikr, test, jamiyat, modifikatsiya, psixik rivojlanish, ta'limot.

Jahon psixologiyasi fanida ijtimoiy faollik, aql-zakovat muammosi alohida ahamiyat kasb etadi, xuddi shu boisdan qadriyat, ma'naviyat hamda aql-zakovat etnopsixologik nuqtai nazardan millat ko'zgusi hisoblanadi. Uning qadrsizlanishi esa mazkur jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, maishiy qoloqlik belgisi va tanazzulga yuz tutishi sanaladi. Chunki qobiliyat, iqtidor, aql-zakovat insoniyat yashab turgan jamiyatning ruhiy va ma'naviy omilidir, binobarin, ma'naviyat mohiyatida esa ma'naviy, ilmiy-texnik, aqliy imkoniyat mazmuni va mohiyati bevosita mujassamlashgan bo'lib, ijtimoiy faollashuvda namoyon bo'ladi. Shu boisdan iste'dod, aql, ahlok va ma'naviyatga nisbatan e'tiborning kamayishi yuz bergan jamiyat hech qachon taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga, fan va texnika rivojiga tub ma'noda erisholmaydi. Jamiyat takomillashuvining bosh omili – bu keng ko'lamlı, teran fikrlovchi, bilimdon, ijtimoiy faol - barkamol shaxslarning shakllanishidir. [1,2]

Respublikamizda tub demokratik o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda tabiiy ravishda, oldimizda psixologiyaning qonuniyatlarini va ilmiy asoslarini o'rganish hamda ulardan o'z faoliyatimizda keng foydalanish lozimligi vazifasi qo'yilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ta'lim-tarbiya oluvchi va beruvchi shaxslarning psixologik xususiyatlarini, ularda o'zaro munosabatlarning psixologik asoslarini o'rganish juda muhim masaladir. Har qanday jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishdir. Jamiyat istiqboli ko'p jihatdan o'quv muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarining mahoratiga, yuqori intellektual darajasiga bog'liqdir. Bunda har bir o'quvchi intellektning hususiyatlarini, o'sish dinamikasini aniqlash va bu borada o'qitishning faol, innovatsion, mukammalroq metodlarini qo'llash va ulardan amaliyotda oqilona foydalanish muhim vazifa xisoblanadi.

Aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan, mustaqil mulohaza yurituvchi o'g'il va qizlarga eng qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish, ularning hayot hamda faoliyat ko'rsatayotgan mikromuhitidan o'zoqlashuvini amalga oshirish, maxsus tashkil qilingan, hozirgi zamon talablariga javob beruvchi o'quv - tarbiyaviy, metodik vositalar, asboblari, qurollari bilan jihozlangan bilim

maskanlarida o'qitish - bu davr talabidir.

Aqliy jihatdan rivojlangan, yuksak qobiliyat va iste'dodli o'quvchilar, talabalar jamiyatning ilmiy - texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch - quvvat bo'lib, ular qadriyat, ma'naviyat, ruhiyat va fanda, madaniyat, san'at va hunarmandchilikda milliy imkoniyatlarni jahon standarti darajasiga olib chiqa oladigan qudratga egadir. Mazkur nuqtai nazardan muammoga yondashish iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularga oqilona ko'rsatma berish, muayyan yunalishga boshqarish maqsadga muvofiq, chunki ularning har kaysisiga xos bo'lgan induvidial hususiyatlar, ichki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarini ochish, takomillishtirish, ta'sir o'tkazuvchi omilkor vositalar topish, ya'ni ularni jamiyat ehtiyoji, talabi, rivojlanish imkoniyatiga mos ravishda maqsadga muvofiq yunaltirish halqlarning azaliy orzu-umidlari, istiqbol rejaları, xohish irodalarini ushalish negizidir. [1]

Hozirgi davrga kelib esa insoning aqliy taraqqiyotini o'rganish uchun hech vaqt kechiktirib bo'lmaydigan qator amaliy ishlar olib borilmokda. Intellect muammosi rus psixologiyasida ham, chet el psixologiyasida ham eng ko'p o'rganilayotgan mavzulardan biriga aylanib qolmokda. O'zbekistonda, rus psixologiyasida va chet elda intellect mohiyatini talqin qilishda turlicha yondashilsa ham, lekin umumiy maqsad bitta bo'lib, u ham bo'lsa, insoning intellektual taraqqiyoti, uning xususiyatlari, o'ziga xosligini ochib berishdan iboratdir. Ko'pgina manbalarda - sobiq sovet psixologiyasida aqliy iste'dod yoki qobiliyat deb yuritilish an'anaga kirib qoldi.

AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari psixologiyasida qobiliyatni miqdor jihatdan o'lchash, uni tavsiflash uchun intellect tushunchasi qo'llanilgan. O'z davrining yirik psixologlari hisoblangan Kettel, Termen, Spirmen va shu kabilar XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida inson qobiliyati darajasini o'lchash maqsadida turli ko'rinishdagi intellektual testlarni ishlab chiqqanlar.

Jahon psixologiyasi fanida intellectni o'rganish o'tgan asrning oxirlaridan e'tiboran jiddiy ravishda e'tibor berila boshlandi. Mazkur muammoni tadqiq etishning yalovbardori A.Bine intellectni jahon ilm maydoniga olib chiqdi. Tadqiqotchi o'z g'oyasini amaliyotda sinab ko'rish maqsadida shogirdi T.Simon bilan hamkorlikda bolalar intellectning rivojlanish darajasini o'lchash uchun psixologik testlar ishlab chiqdilar. Mazkur ta'limotga nazariy negiz sifatida o'sha davrda hukmron mavqega ega bo'lgan funksional psixologik nazariya tatbiq etilgan bo'lib, unda psixik rivojlanish bir nechta tug'ma funksiyalar rivojining natijasida yuz beradi, degan fikr, kat'iy ustunlik qilar edi. Ushbu konsepsiyaga asoslangan holda A. Bine shunday masalalarni tanladiki, bunda bolaning ilgari bilimlari va ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatlari sezilarli darajada kamaytirildi. A.Binening maqtovga sazovor jihatlaridan biri, har bir yosh davri uchun shunday testlar seriyasini tuzish kerakki, toki uning yechilishi fakat aynan shu davrga taalluqli bo'lsin, degan yondashuvidir. Test maktab bilimlaridan mustaqil bo'lishi kerak, fakat ana shundagina bolaning haqiqatan ham aqliy rivojlanish darajasi tekshiriladi, degan mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bola intellecti har kandy masala yechish jarayonida rivojlanadi, degan g'oyadan kelib chiqqan holda, test topshiriqlarini nazariy asoslari shart emas deb hisoblaydi,

natijada ayrim shubhalar tug'ilishiga imkon yaratadi, tanqidiy fikrlashga tadqiqotchini da'vat qiladi.

XX asrning boshlarida esa intellektni tadqiq qilish yuzasidan Bine va Simon ta'limotlari jahon psixologiyasi faniga keng quloq yoydi, natijada bir qator mamlakatlarda ularning tarafdorlari, hamfirkarlari vujudga kela boshladi. Bine va Simonlardan keyin bir qator boshqacha shaklga va ko'rinishga ega bo'lgan testlar va ularning muayyan tizimlari hamda mazkur mualliflar testlarining ko'p sonli modifikatsiyalari yuzaga keldi.

Ular orasida amerikalik psixolog L.Termen tomonidan ishlab chiqilgan modifikatsiya alohida ahamiyatga molikligi bilan ajralib turar edi. U o'z tadqiqotlarida Galtonning aqliy qobiliyatni genetik jihatdan shartlanganligi to'g'risidaga nazariyasiga ko'proq murojaat qildi.

Turli shakl va ko'rinishdagi testlar tizimining paydo bo'lishi va bir qator testlarning ko'p sonli modifikatsiyalari ishlab chiqilishi natijasida yangidan-yangi tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Shu sababdan 20-yillarda test tadqiqotlari butun dunyoga keng tarqala bordi, oqibatda standartlashtirilgan testlar o'quvchilarning qobiliyatlariga ko'ra, ularni muayyan guruhlarga saralashda katta yordam ko'rsata boshladi. 1921 yilda "Psixologiya ta'limi" jurnali sahifalarida amerikalik yirik psixologlar tomonidan uyushtirilgan ilmiy bahs va munozaralar bosilib chiqildi. Ularning har kaysidan intellektni tushuntirish va uni tadqiq qilishning eng yaxshi usuli so'ralganda, deyarli barcha olimlar test tadqiqotlarini eng maqbul, eng omilkor usul deb baholadilar, vaholanki ularning intellekt hakidagi tushunchalari bir-birini inkor qilarli darajada edi. Jumladan, «Intellekt mavhum tafakkurga nisbatan qobiliyatlilikdir» (L.Termen), «...bilimlarning o'zaro munosabatlilik va ularning atrof-muhitga moslashishdagi ko'magi ekanligi» (E.Torndayk), «...nerv sistemasining modifikatsiyalariga nisbatan asosiy qobiliyati» (R.Gingner), «...o'zlashtirishga nisbatan qobiliyat ko'rinishi» (X.Vudirs) va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Bolalar aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnika vositalari bilan darslarni tashkil etish ta'lim oluvchilar intellektini rivojlantiradi:

- Turli xil to'garak, klublar faoliyat ko'rsatishi va bolalarning ularda qatnashish imkoniyatini yaratish:

- Shaxslararo o'zaro muloqot o'rnatishning uzluksizligi va oilada iliq psixologik muhitning hukm surishini ta'minlash:

- Turli televizion viktorinalar, bahslar, tortishuvlar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo'yicha musobaqalar tashkil etish va ularda ishtirok etish imkoniyatini yaratish:

- Ortiqcha informatsiya, xabarlar ko'lamini kamaytirish (video, aftomat o'yinlar, kompyuter o'yinlar), zararli odatlar (ichish, chekish, narkotik moddalar) bilan shug'ullanishning oldini olish

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyat talabi har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash ekan, bu talabni amalga oshirishda barcha kuch-quvvatni yig'ib, yoshlarning har tomonlama yetukligi uchun shart-sharoitlarni yaratish

uchun barcha mas'uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent. 2004 y.
2. G'oziyev E.F. Intellekt psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2002
3. Psixologiya fani XXI asrda. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: 2002.
4. Низамова О.Н. Развитие интеллектуальных способностей младших школьников. Образование и воспитание — 2020.
5. Qodirova, M. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://fll.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4025>
6. M. (2022). O'SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>
7. Qodirova, M., & Nasimov, D. (2022). MUTAFFAKKIR OLIMLARIMIZ O'QUV FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6415>
8. Кадырова Маликахон Кахрамановна, КОНФЛИКТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА. Джизакский Государственный педагогический университет, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7600237>